

Aqliy hujum – g‘oyalar generatsiya (ishlab chiqish) qilish metodidir. “Aqliy hujum” metodi biror muammoni yechishda tinglovchilar tomonidanbildirilgan erkin fikr va mulohazalarni to‘plab, ular orqali ma’lum bir yechimgakelinadigan eng samarali metoddir.

Aqliy hujum metodining yozma va og‘zakishakllari mavjud. Og‘zaki shaklida o‘qituvchi tomonidan berilgan savolgatalabalarning har biri o‘z fikrini og‘zaki bildiradi. Talabalar o‘z javoblarini aniqva qisqa tarzda bayon etadilar. Yozma shaklida esa berilgan savolga talabalar o‘zjavoblarini qog‘oz kartochkalarga qisqa va barchaga ko‘rinarli tarzda yozadilar. Javoblar doskaga (magnitlar yordamida) yoki «pinbord» doskasiga (ignalar yordamida) mahkamlanadi. “Aqliy hujum” metodining yozma shaklida javoblarni ma’lum belgilar bo‘yicha guruhlab chiqish imkoniyati mavjuddir.

Ushbu metod to‘g‘ri va ijobiy qo‘llanilganda shaxsni erkin, ijodiy va nostandartfikrlashga o‘rgatadi.

Qo‘llanish usuli. “Aqliy hujum” ishtirokchilari oldiga qo‘yilgan muammo bo‘yicha har qanday mulohaza va takliflarni bildirishlari mumkin. Aytilgan fikrlar yozib boriladi va ularning mualliflari o‘z fikrlarini qaytadan xotirasida tiklash imkoniyatiga ega bo‘ldi. Metod samarasi fikrlar xilma-xilligi bilan tavsiflanadi va

aqliy hujum davomida ular tanqid qilinmaydi, qaytadan ifodalanmaydi. Aqliy hujum tugagach, muhimlik jihatiga ko’ra eng yaxshi takliflar generatsiyalanadi va muammoni yechish uchun zarurlari tanlanadi.

“Aqliy hujum” metodi o‘qituvchi tomonidan qo‘yilgan maqsadga qarab amalga oshiriladi:

1. Tinglovchilarning boshlang‘ich bilimlarini aniqlash maqsad qilib qo‘yilganda, bu metod darsning mavzuga kirish qismida amalga oshiriladi.
2. Mavzuni takrorlash yoki bir mavzuni keyingi mavzu bilan bog‘lash maqsad qilib qo‘yilganda - yangi mavzuga o‘tish qismida amalga oshiriladi.
3. O‘tilgan mavzuni mustahkamlash maqsad qilib qo‘yilganda - mavzudan so‘ng, darsning mustahkamlash qismida amalga oshiriladi.

“Aqliy hujum” metodining bosqichlari:

1. Tinglovchilarga savol tashlanadi va ularga shu savol bo‘yicha o‘z javoblarini (fikr, mulohaza) bildirishlarini so‘raladi;
2. Tinglovchilar savol bo‘yicha o‘z fikr-mulohazalarini bildirishadi;
3. Tinglovchilarning fikr-g‘oyalari (magnitofonga, videotasmaga, rangli qog‘ozlarga yoki doskaga) to‘planadi;
4. Fikr-g‘oyalar ma’lum belgilar bo‘yicha guruhlanadi;
5. Yuqorida qo‘yilgan savolga aniq va to’g’ri javob tanlab olinadi.

“Aqliy hujum” metodini qo‘llashdagi asosiy qoidalar:

a) bildirilgan fikr-g‘oyalar muhokama qilinmaydi va baholanmaydi.
b) bildirilgan har qanday fikr-g‘oyalar, ular hatto to‘g‘ri bo‘lmasa ham inobatga olinadi.
v) bildirilgan fikr-g‘oyalarni to‘ldirish va yanada kengaytirish mumkin.





Aqliy hujum metodidan darsning asosiy qismini boshlashda foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi.